
Agentlik fenomenining umumiy tilshunoslikdagi o'рни va tarixiy taraqqiyoti

Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna

Shaibonu@mail.ru

O'qituvchi,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya *Ushbu maqolada tilshunoslikdagi "agentlik" tushunchasi – ya'ni hodisalarni amalga oshiruvchi subyektning til vositalarida ifodalanishi masalasi keng tahlil qilinadi. Agentlikning umumiy tilshunoslikdagi o'рни, uning sintaksis va semantika bilan uzviy aloqasi, shuningdek, tildagi subyektivlik, ijtimoiy va madaniy kontekstlar bilan bog'liqligi batafsil yoritiladi. Maqolada agentlik fenomenining antik davrlardagi grammatik talqinlardan boshlab zamonaviy lingvistik paradigmalargacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, bu jarayonda agentlikning universal va tipologik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, agentlik kategoriyasining tilda sub'ektning faol pozitsiyasini belgilashdagi o'рни, nutq faoliyatida ijtimoiy identifikatsiya va kommunikativ maqsadlarni ifodalashdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Maqola agentlikning kognitiv va sotsiokultural aspektlarini o'rganish orqali tilni ijtimoiy harakat vositasi sifatida talqin etish zarurligini asoslaydi. Natijada, agentlik fenomenini chuqur o'rganish tilshunoslikda inson faoliyati, ong va til o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yaxshiroq anglashga xizmat qiladi. Tilshunoslikda agentlik kategoriyasini tahlil qilish nutq faoliyatining kognitiv va sotsiokultural aspektlarini anglashga yordam beradi va bu tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, agentlik tilshunoslikda tilni faqat tasviriy tizim emas, balki ijtimoiy harakat, identifikatsiya va o'zgarish vositasi sifatida ko'rishga imkon beradi.*

Kalit so'zlar *Agentlik, tilshunoslik, subyekt, sintaksis, semantika, kognitiv tilshunoslik, til tipologiyasi, faol-pasiv strukturasi*

Феномен агентности в общем языкознании и его историческое развитие

Саид-Ахмедова Шохиста Нуритдиновна

Shaibonu@mail.ru

Преподаватель,

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Аннотация *В данной статье подробно рассматривается лингвистическое понятие «агентность» – то есть выражение в языке субъекта, совершающего действие. Анализируется место агентности в общей лингвистике, её тесная связь с синтаксисом и семантикой, а также с субъективностью, социальными и культурными контекстами языка. В статье освещаются этапы исторического развития феномена агентности – от античных грамматических трактовок до современных лингвистических парадигм, раскрываются её универсальные и типологические особенности. Кроме того, показана роль категории агентности в определении активной позиции субъекта в языке, а также её значение для выражения социальной идентичности и коммуникативных целей в речевой деятельности. Автор подчёркивает необходимость изучения когнитивных и социокультурных*

аспектов агентности для понимания языка как средства социального действия. Глубокое исследование агентности способствует более полному осмыслению взаимосвязи между человеческой деятельностью, сознанием и языком. Анализ категории агентности помогает понять когнитивные и социокультурные аспекты речевой деятельности, что имеет важное значение для лингвистики. В заключение отмечается, что агентность позволяет рассматривать язык не только как описательную систему, но и как средство социального действия, идентификации и изменений.

Ключевые слова

Агентность, языкознание, субъект, синтаксис, семантика, когнитивная лингвистика, типология языка, активно-пассивные структуры

Agentivity in General Linguistics and Its Historical Development**Said-Akhmedova Shokhista Nuritdinovna**Shaibonu@mail.ru

Teacher,

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the linguistic concept of "agency" – that is, the expression in language of the subject performing an action. The study examines the role of agency in general linguistics, its close relationship with syntax and semantics, as well as its connection to subjectivity, social, and cultural contexts. The article explores the historical development of the agency phenomenon – from ancient grammatical interpretations to modern linguistic paradigms – revealing its universal and typological features. Furthermore, it highlights the importance of the agency category in defining the active position of the subject in language and its role in expressing social identity and communicative intent in speech activity. The paper argues for the importance of studying the cognitive and sociocultural aspects of agency to interpret language as a means of social action. A deeper understanding of agency helps to clarify the complex relationship between human activity, consciousness, and language. The analysis of the agency category also contributes to understanding the cognitive and sociocultural dimensions of speech activity, which is of great significance in linguistics. In conclusion, agency enables us to view language not merely as a descriptive system but as a tool for social action, identity formation, and transformation.

Keywords

Agentivity, linguistics, subject, syntax, semantics, cognitive linguistics, language typology, active-passive structures

Kirish

Tilshunoslikda "agentlik" tushunchasi, ayniqsa, sintaktik va semantik tahlillarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda agent (ya'ni amalni bajarayotgan shaxs yoki mavjudot) til birliklari orqali qanday ifodalanishi, turli tillarda qanday

sintaktik vositalar bilan ko'rsatilishi, voqealarni anglash va tushinishda qanday rol o'ynashi agentlik fenomeni orqali ko'rsatiladi. Agentlik tushunchasi nafaqat grammatik birlik sifatida, balki kognitiv, ijtimoiy va madaniy ko'rinish sifatida ham tadqiq etiladi. Ushbu maqolada

agentlik tushunchasining lingvistik nazariyadagi o'рни, tarixiy rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yondashuvlar asosida yoritib beriladi. Tilshunoslikda "agentlik" tushunchasi – ya'ni hodisalarni amalga oshiruvchi subyektning til vositalarida ifodalanishi – tilni faqat struktura jihatdan izohlash emas, balki til orqali ijtimoiy harakat va identifikatsiyaning shakllanishi jihatdan ham o'rganishga imkon beradi. Bu jihatdan agentlik umumiy tilshunoslik doirasida muhim nazariy o'rin egallaydi: u semantika va sintaksis darajasida kim harakat qilmoqda («agent») va kim harakatga duchor bo'lmoqda («patsient») degan rolerozlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, grammatik tadqiqotlarda agentlikni kodlashda turli tillarda agentning morfosintaktik belgilanishi muhim mezon hisoblanadi. Shuningdek, agentlik til ichida subyektivlikni – nutq ichidagi akorning faol pozitsiyasini – ochib beradi, va bu esa til-ijtimoiy va madaniy kontekstlar bilan bevosita bog'liq. Tarixan agentlik tushunchasi antik davr grammatik traditsiyalaridan boshlab rivojlanib, XX asr tilshunoslik paradigmalari hamda kognitiv va sotsiokultural yondashuvlar orqali yangicha shaklga keldi. Shunday qilib, agentlikning universal va tipologik jihatlari tahliliga kirishish tilshunoslikda nutq faoliyatining kognitiv va sotsiokultural tomonlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu maqola agentlik fenomenining umumiy tilshunoslikdagi o'рни va tarixiy taraqqiyotini ko'rib chiqib, tilni passiv sistema emas, faol ijtimoiy harakat vositasi sifatida ko'rishga qaratilgan.

1. **Agentlik tushunchasining mazmuni va asosiy tamoyillari**

Agentlik, tilshunoslikda asosan, semantik rollardan biri bo'lib, harakatni amalga oshiruvchi yoki boshqaruvchi subyekt sifatida qaraladi. Masalan, "Salim eshikni ochdi" gapida *Salim* – agent bo'lib, u harakatni boshqaradi. Agentlik bilan bir qatorda patient (ta'sir ko'rsatilayotgan obyekt), experiencer (his qiluvchi) kabi semantik rollar ham mavjudligi ma'lum, lekin agentlik boshqa rollarga nisbatan

faoliyatning markaziy koordinatori sifatida ajralib turadi. Chomskiy generativ grammatika nazariyasida agentlikni sintaktik strukturalar orqali ifodalaydi va keyinchalik bu yondashuvlar funksional va kognitiv tilshunoslik doirasida ham kengaytirildi. Masalan, Langackerning kognitiv grammatika nazariyasida agent – kontseptual strukturadagi faol figuraning bir ko'rinishi sifatida yoritiladi.

2. **Tarixiy taraqqiyot: Antik davrdan hozirgacha**

Agentlik tushunchasining tilshunoslik va til nazariyasidagi rivojlanishini tarixiy jihatdan ko'rib chiqishning foydasi shundaki, uning nazariy shakllanishi qanday ijtimoiy-fikriy va ilmiy kontekstlarda yuz berganini tushunish imkonini beradi. Antik davr tilshunoslik va grammatika an'analari, xususan yunon va lotin tilshunoslik maktablarida, "agent" va "majhul" nisbatlari orqali hodisalarni amalga oshiruvchi subyekt va u bilan bog'liq strukturalar haqida ilk mulohazalar paydo bo'lgan edi. Bu davrda til aktyorining irodasi, harakatqar ekanligi yoki qabul qiluvchanligi kabi tushunchalar grammatikaning ob'ektiga aylangan. Masalan, aktyor (agent) rolini egallagan subyekt va uning vazifasi til omillarida qanday ifodalanganligi haqida mulohazalar mavjud. Keyingi bosqichda, O'rta asr tilshunosligi va falsafiy fikrlar kontekstida agentlik tushunchasi inson erki, ilohiy iroda, subyektivlik bilan bog'liq holda muhokama qilina boshladi. Bu davrda til vazifasi faqat struktural-texnik jihatdan emas, balki ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ham ko'rib chiqilardi: kim so'z qiladi, kimga so'z qilinadi, subyektning pozitsiyasi qanday – degan savollar o'ringa chiqdi. XVIII–XIX asrlarda yangi tilshunoslik yondashuvlari paydo bo'ldi: tilni inson tafakkurining ifodasi deb ko'rgan Wilhelm von Humboldt uslubi agentlikni ma'naviy faoliyat bilan bog'lashga yo'naltirilgan. Tilshunoslik bu davrda sintaksis va semantika jihatdan rivojlana boshladi: agentlik rovida kim harakat qilmoqda va til tarkibida bu qanday kodlanmoqda degan savollar til tadqiqotchilar e'tiborida bo'ldi. XX asrda esa ilmiy tilshunoslikda aniqlik va nazariy

chuqurlik o'sdi. Noam Chomskyning (Chomsky, 1965) generativ grammatika yondashuvi agentlikni sintaktik strukturadagi chuqur (deep) va yuzaki (surface) darajalar orqali tahlil qilish imkonini berdi. Bu til ichidagi harakat va subyektlik rolini yangi nazariy maydonga olib chiqdi. Keyinchalik – 1970-1980 yillarda – Leonard Talmy (Talmy, 2000), Charles J. Fillmore va boshqa kognitiv tilshunos olimlari agentlikni semantik-tematik rollar, kognitiv modellar orqali o'rganishni boshladilar. Bu bosqichda agentlik tilda faqat struktural jihatdan emas, balki ma'na, ong, ijtimoiy kontekst bilan bevosita bog'liq jihatlar orqali ham ko'rib chiqilmoqda.

So'nggi yillarda esa agentlik fenomeni tilshunoslikning yana ham ko'p yo'nalishlarida – masalan, sotsioktilshunoslik, diskurs tahlili, gender tilshunosligi, identitet tahlili – keng muhokama etilmoqda. Agentlik nafaqat grammatik rol emas, balki ijtimoiy tenglik, nutqdagi vakolat, identifikatsiya va o'zgarish vositasi sifatida qabul qilinmoqda. Shu tariqa, agentlik tushunchasining tarixiy taraqqiyoti tilshunoslikka tilni faqat tizim sifatida emas, balki faol, dinamik ijtimoiy va kognitiv harakat vositasi sifatida ko'rishga imkon beradi.

3. **Agentlik va til strukturasi: sintaktik va semantik jihatlar**

Agentlikning ifodalanish turli tillarda usullari har xil bo'lishi mumkin. Ingliz tili kabi analitik tillarda agent asosan subyekt pozitsiyasida bo'ladi: *The students cleaned the floor*. Ammo turkiy, fin-ugor kabi morfologik jihatdan boy tillarda esa agentlik ko'proq ergativ tizimlar yoki kelishiklar orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa otlar ko'plik va ergativ shakllarda agentlikni bildiradi: *Talabalar polni tozaladi*. Shuningdek, agentlik faol va majhul nisbatda ham namoyon bo'ladi: *Gulnora kitobni o'qidi* (aktiv), *Kitob o'qildi* (majhul). Bu esa agentlikning ochiq yoki yopiq ifodalanishini bildiradi. Ba'zi tillarda esa agentlikni bildiruvchi struktura hatto sintaktik subyekt bo'lmagan holda ham mavjud bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Bu esa impersonal konstruktsiyalar ya'ni shaxsi yo'q konstruktsiyalar deb ataladi.

4. **Kognitiv va sotsiokultural yondashuvlar**

Agentlik zamonaviy kognitiv tilshunoslikda insonning tafakkur va tajribasi asosida tahlil qilinadi. Masalan, Langacker (Langacker, 1987) agentni tilning idrok bilan bog'liq kontseptsiyasi deb ta'riflaydi va uning yondashuvga ko'ra, agentlik – bu oddiy grammatik rol emas, balki inson ongidagi faoliyat modeli hisoblanadi. Sotsiokultural jihatdan esa agentlik shaxsiy identitet va ijtimoiy rol bilan bog'liq hisoblanadi. Masalan, gender tilshunosligida ayollar va erkaklarning tilidagi agentlik darajalari, jamiyatdagi kuch munosabatlarini qanday aks ettirishi tahlil qilinsa, Foucault va Butler kabi faylasuflar agentlikni kuch va irodaning til orqali namoyon bo'lishi sifatida yoritdilar. Shu sababli agentlik nafaqat tildagi grammatik birlik, balki ijtimoiy pozitsiyani ham bildiradi (Foucault, 1980).

5. **Agentlik fenomenining o'zbek tilshunosligidagi o'rni**

Agentlik fenomeni tilshunoslikning turli yo'nalishlarida keng tadqiq etilayotgan muhim nazariy kategoriyalardan biri bo'lib, bu tushuncha asosan semantik rollar nazariyasiga taalluqli hisoblanadi va harakatning boshlovchisi, tashabbuskori yoki subyekt sifatida harakat qiluvchi ishtirokchini anglatuvchi kategoriya sifatida qaraladi. Sintaksis, semantika, pragmatika hamda diskurs tahlilida agentlik tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgacha o'zbek tilshunosligida agentlik fenomeni hali to'liq chuqurlikda o'rganilmagan bo'lsa-da, bu masala so'nggi yillarda dolzarb ilmiy izlanishlar mavzusiga aylanib kelmoqda. Xususan, zamonaviy tilshunoslikda agentlik faqat grammatik kategoriyalarga emas, balki kognitiv va kommunikativ jarayonlarga ham daxldor tushuncha sifatida o'rganilmoqda. Agentlik tushunchasi dastlab umumiy tilshunoslikda semantik rollarni tahlil qilishda ilgari surilgan. Ayniqsa, Ch. Fillmorening semantik rollar nazariyasi (Case Grammar) doirasida agentlik – harakatni bajarayotgan subyekt sifatida asosiy semantik rol sifatida ko'rilgan. (Fillmore, 1968;

41.) Agent, bu yerda, harakatni ongli ravishda, ixtiyoriy tarzda bajarayotgan mavjudot sifatida ta'riflanadi. Bu nazariyada agentlikning mavjudligi uchun harakat ixtiyoriy bo'lishi, agent ongli bo'lishi va harakatni bevosita o'zi amalga oshirishi lozim deb hisoblanadi. Masalan, "Bola kitob o'qidi" jumlasida "bola" agent bo'lib, u o'zi ongli ravishda harakatni amalga oshiryapti. O'zbek tilshunosligida bu kabi semantik rollar tahlili hali keng rivojlanmagan bo'lsa-da, agentlikning o'zi sintaktik tahlil, nisbat kategoriyasi, zamon shakllari va gap tuzilmasi orqali tahlil qilinmoqda. O'zbek tili strukturasi nominativ tuzumga ega bo'lib, bunda harakat subyekti – ya'ni agent – odatda ega funksiyasida ifodalanadi va agent ko'pincha ot yoki olmosh ko'rinishida kelib, ot tushunchasini bildiruvchi ishtirokchi sifatida gapda o'rin egallaydi. "O'qituvchi mashg'ulot o'tkazdi", "Bobur xat yozdi", "Ular bog'da ishlayapti" kabi gaplarda agentlikning grammatik ifodalanishi yaqqol ko'zga ko'rinib turibdi. Bunday holatlarda harakatni bajarayotgan subyekt aniq ko'rsatilgan bo'ladi. O'zbek tilida agentlik fe'lining nisbat shakllari orqali ham bilvosita ifodalanishi mumkin. Ayniqsa, majhul nisbat shakllarida agentlik noma'lum bo'lishi yoki ma'no yuzasidan fon orqasida qoladi. Masalan, "Kitob o'qildi" gapida agent ochiq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, harakat bajarilgani ma'lum. Bu holatda agentlik semantik darajada mavjud, biroq grammatik jihatdan noma'lum qolgan hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zbek tilida agentlikning ifodalanishida nisbat kategoriyasi muhim rol o'ynaydi. To'g'ri nisbatda agent doimo ochiq holda ko'rsatiladi: "Men magazinga bordim", "Biz kino ko'rdik" kabi gaplarda agent – men va biz – fe'lga bevosita bog'langandir, biroq majhul nisbatda agent yashirin bo'ladi: "Xona ta'mirlandi", "Gazetalar chop etildi". Bu yerda agent noma'lum, biroq harakat bor hisoblanadi. Ba'zi hollarda esa agent ko'rsatilgan bo'lsa-da, u grammatik pozitsiyada emas, balki kontekstdan kelib chiqib tushuniladi: "Gazetalar o'qituvchilar tomonidan o'qildi". Bu misolda agentlik

"o'qituvchilar tomonidan" konstruksiyasi orqali ifodalangan bo'lib, bunday ifoda agentlikni semantik, emas grammatik darajada anglatadi. Shunday qilib, o'zbek tilida agentlik grammatik va semantik jihatdan birgalikda amal qiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan olib qaralganda agentlik suhbatdagi mavzu, kontekst, nutq egasining niyati va auditoriya ehtiyojlariga qarab o'zgarib turadi. Masalan, agar gaplovchi harakat bajarayotgan shaxsni muhim deb hisoblamasa yoki u ma'lum bo'lsa, agentni grammatik jihatdan ifodalamasligi mumkin. Bu holatda agentlik pragmatik darajada tushuniladi. "Bugun hujjatlar topshirildi" jumlasida kim topshirgani noma'lum, lekin kontekstda ma'lum bo'lishi mumkin. Shunday qilib, agentlik faqat grammatik strukturaga emas, balki kontekstga, nutq vaziyatiga va suhbat ishtirokchilarining bilim darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Bu esa agentlik fenomenini tilning kommunikativ jihatlar bilan chambarchas bog'laydi. Agentlik, semantik jihatdan, boshqa rollar bilan doimiy munosabatda bo'ladi. Bu rollarga pasient (harakatdan zarar ko'ruvchi), benefaktiv (harakatdan foyda ko'ruvchi), instrument (vosita), lokativ (joy) kabi rollar kiradi. Masalan, "O'qituvchi talabalarga kitob berdi" jumlasida "o'qituvchi" – agent, "talabalar" – benefaktiv, "kitob" – pasient rolini bajaradi. Agent har doim harakatning boshlovchisi sifatida boshqa rollarga nisbatan aktivroq pozitsiyada bo'ladi. Agentlikning bunday semantik munosabatlarda ishtiroki harakatning tuzilishini va uni qanday tilda ifodalashni belgilaydi. O'zbek tilida ham har bir semantik rol tegishli sintaktik pozitsiyalarga ega bo'lib, agent ko'pincha gap boshida ega sifatida joylashgan bo'ladi.

Zamonaviy tilshunoslikda agentlik fenomeni kognitiv tilshunoslik, funksional grammatika, tipologik tadqiqotlar, diskurs tahlili, psixolingvistika kabi sohalarida keng o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, agentlikning ongli harakat, niyat, nazorat kabi psixologik kategoriyalar bilan bog'lanishi bu tushunchani faqat til strukturasi emas, balki inson

tafakkuri va idroki bilan ham bog'liqligini bildiradi. Agentlik kognitiv lingvistikada mental model sifatida ko'riladi – ya'ni inson o'z fikrini tuzishda harakatni kim bajaradi, qanday bajaradi, natijasi nima bo'ladi kabi tushunchalarni bir vaqtda anglaydi va ifodab ko'rsatadi. Shunga qo'shimcha ravishda, agentlik antropologik tilshunoslikda ham muhim o'rin tutadi, chunki har bir madaniyat agentga bo'lgan yondashuvda o'ziga xoslikka ega hisoblanadi.

Xulosa

Agentlik fenomeni o'zbek tilshunosligida sintaktik, semantik, pragmatik va kognitiv jihatdan muhim rol o'ynaydi. Bu tushuncha

tilning ichki tuzilishini, harakat va ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatni, nutqning kommunikativ maqsadlarini aniqlashda zarur tahlil vositasi hisoblanadi. Agentlik fenomeni tilshunoslikning turli yo'nalishlarida chuqur tadqiq qilinayotgan murakkab kategoriya bo'lib, uning semantik, sintaktik, kognitiv va ijtimoiy kontekstdagi ifodalanish shakllari til va tafakkur o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ko'rsatib beradi. Biz agentlikni tahlil qilish orqali tilning nafaqat strukturaviy, balki ideologik va madaniy jihatlarini ham anglaymiz va shuning uchun agentlik fenomeni umumiy tilshunoslik doirasida fundamental nazariy ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the theory of syntax*. Cambridge, MA: MIT Press.
2. Fillmore, C. J. (1968). The case for case. In Bach, E., & Harms, R. (Eds.), *Universals in linguistic theory*. New York: Holt, Rinehart and Winston.
3. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of cognitive grammar* (Vol. 1). Stanford: Stanford University Press.
4. Talmy, L. (2000). *Toward a cognitive semantics*. Cambridge, MA: MIT Press.
5. Butler, J. (1997). *Excitable speech: A politics of the performative*. London: Routledge.
6. Foucault, M. (1980). *Power/knowledge: Selected interviews and other writings*. New York: Pantheon Books.
7. Saidxamedova, Sh. (2023). Linguocognitive analysis of linguistic personality in the conceptosphere of the literary text. *Ta'lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi*, 10(3), 74–77.